Qabul qilindi: 14-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 18-noyabr 2026-yil

AXBOROT TIZIMLARINING TUSHUNCHASI VA ULARDAN IQTISODIYOTNING SOHALARIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xaydaraliyeva Moxinabonu Umid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: xmoxinabonu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot tizimlarining mazmun-mohiyati, ularning shakllanishi, asosiy tarkibiy qismlari va iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni yoritilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida axborot tizimlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida muhim vositaga aylanmoqda. Maqolada axborot tizimlaridan bank-moliya, sanoat, savdo, ta’lim, transport va buxgalteriya hisobi sohalarida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, axborot tizimlarining iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, vaqt va mablag‘larni tejash hamda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ularni joriy etishda uchraydigan ayrim muammolar va ularning yechimlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot tizimi, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, iqtisodiy samaradorlik, avtomatlashtirish, ma’lumotlar bazasi, boshqaruv, buxgalteriya hisobi, raqamlashtirish.

Abstract: This article discusses the concept of information systems, their main components and their role in economic activities. Nowadays, due to the rapid development of digital technologies, information systems have become an important tool in almost every sector of the economy. The article analyzes the opportunities for using information systems in banking and finance, industry, trade, education, transportation and accounting. Particular attention is paid to their importance in improving economic efficiency, optimizing management processes, saving time and financial resources, and ensuring data security. The

article also examines some challenges associated with the implementation of information systems and possible ways to overcome them.

Keywords: Information systems, digital economy, information technology, economic efficiency, automation, database, management, accounting, digitalization.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятие информационных систем, их основные компоненты и роль в экономической деятельности. В условиях стремительного развития цифровых технологий информационные системы становятся важным инструментом практически во всех отраслях экономики. В статье анализируются возможности применения информационных систем в банковской и финансовой сферах, промышленности, торговле, образовании, транспорте и бухгалтерском учёте. Особое внимание уделяется их значению в повышении экономической эффективности, совершенствовании управленческих процессов, экономии времени и финансовых ресурсов, а также обеспечении безопасности информации. Кроме того, рассматриваются основные проблемы внедрения информационных систем и возможные пути их решения.

Ключевые слова: Информационные системы, цифровая экономика, информационные технологии, экономическая эффективность, автоматизация, база данных, управление, бухгалтерский учёт, цифровизация.

KIRISH

Hozirgi davrda axborot va raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasida axborotning o‘z vaqtida olinishi, qayta ishlanishi va to‘g‘ri tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday korxona yoki tashkilotning samarali faoliyat yuritishi nafaqat moddiy va moliyaviy resurslarga, balki mavjud axborotlardan qay darajada oqilona foydalanishiga ham bog‘liq.

Ilgari ko‘plab iqtisodiy jarayonlar qo‘lda bajarilgan, ma’lumotlar qog‘oz shaklida saqlangan va ularni qayta ishlash ko‘p vaqt talab qilgan. Bugungi kunda esa zamonaviy axborot tizimlari yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va kerakli foydalanuvchilarga yetkazish imkoniyati mavjud.

Axborot tizimlarining rivojlanishi korxonalarda boshqaruv sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish, moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish va iqtisodiy qarorlarni asosli qabul qilishga xizmat qilmoqda. Shu sababli axborot tizimlarini o‘rganish va ularning iqtisodiyotdagi imkoniyatlarini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi axborot tizimlarining nazariy asoslarini o‘rganish, ularning iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llanilish imkoniyatlarini yoritish hamda iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

1. Axborot tizimlari tushunchasi va ularning asosiy tarkibiy qismlari

Axborot tizimi — bu ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish orqali foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi o‘zaro bog‘liq vositalar, usullar, dasturlar va insonlar majmuasidir. Bunday tizimlar tashkilot va korxonalarda boshqaruv, nazorat, rejalashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Axborot tizimini faqat kompyuter yoki dasturiy ta’minot bilan cheklab bo‘lmaydi. Uning samarali ishlashi bir nechta tarkibiy qismlarning o‘zaro hamkorligiga bog‘liq.

Axborot tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Texnik vositalar (Hardware) — kompyuterlar, serverlar, printerlar, ma’lumot saqlash qurilmalari va boshqa texnik uskunalar.

2. Dasturiy ta’minot (Software) — axborotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va saqlashga xizmat qiluvchi dasturlar.

3. Ma’lumotlar (Data) — tizimga kiritiladigan iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi axborotlar.

4. Inson resurslari (People) — axborot tizimidan foydalanuvchi xodimlar, mutaxassislar va rahbarlar.

5. Jarayon va qoidalar (Procedures) — axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish tartiblari.

1-rasm.

Axborot tizimining asosiy tarkibiy qismlari



Ushbu tarkibiy qismlar birgalikda ishlaganda axborot tizimi o‘z vazifasini to‘liq bajaradi. Masalan, korxonada sotilgan mahsulotlar haqidagi ma’lumotlar tizimga kiritiladi, dastur ularni qayta ishlaydi va natijada kunlik tushum, xarajat hamda foyda to‘g‘risida hisobot shakllantiriladi.

Axborot tizimlarining asosiy vazifasi faqat ma’lumotlarni saqlash emas, balki ularni foydali axborotga aylantirish va boshqaruv jarayonlarida qo‘llash imkonini yaratishdir.

1-jadval.

Iqtisodiyotning turli sohalarida axborot tizimlaridan foydalanish yo‘nalishlari.

Iqtisodiyot sohasi	Axborot Tizimlaridan foydalanish
Bank-moliya	Elektron to‘lovlar, onlayn bank hizmatlari, hisob-kitoblar
Sanoat	Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish, resurslarni boshqarish
Savdo	Elektron savdo, mahsulotlar hisobini yuritish
Ta’lim	Elektron ta’lim platformalari, talabalar ma’lumotlar bazasi
Transport	Yuk va transport harakatini kuzatish
Buxgalteriya	Moliyaviy hisobotlar, daromad va xarajatlarni hisobga olish

2. Axborot tizimlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati

Iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘p jihatdan axborot almashinuvi tezligi va sifatiga

bog‘liq. Korxona faoliyatida har kuni ko‘plab iqtisodiy operatsiyalar amalga oshiriladi. Ularning barchasini qo‘lda hisobga olish va nazorat qilish murakkab jarayon hisoblanadi.

Axborot tizimlari ushbu jarayonlarni soddalashtirib, ma’lumotlarni yagona tizimda jamlash imkonini beradi. Natijada rahbarlar korxonaning moliyaviy holati, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sotilishi va mavjud xarajatlari haqida tezkor ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Axborot tizimlarining iqtisodiyotdagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

– ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash;

– inson mehnati va vaqt sarfini kamaytirish;

– ortiqcha xarajatlarning oldini olish;

– boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish;

– moliyaviy va ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– ma’lumotlarning yaxlitligi va saqlanishini ta’minlash;

– korxonaning raqobatbardoshligini oshirish.

Masalan, yirik savdo korxonasida mahsulotlar soni, narxi va sotilish hajmini oddiy daftar orqali nazorat qilish ko‘p vaqt talab etadi. Maxsus axborot tizimi esa har bir savdo operatsiyasini qayd etib, ombordagi mahsulot qoldig‘ini avtomatik ravishda yangilashi mumkin. Bu esa xatolarni kamaytirish va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

3. Axborot tizimlaridan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish imkoniyatlari

Axborot tizimlari bugungi kunda iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida keng qo‘llanilmoqda. Har bir sohada ularning vazifasi va qo‘llanish shakli turlicha bo‘lsa-da, asosiy maqsad faoliyat samaradorligini oshirishdan iborat.

Bank-moliya sohasida

Bank tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy operatsiyalarni tez va qulay amalga oshirish imkonini bermoqda. Mobil banking, internet banking, elektron to‘lov tizimlari va bank ma’lumotlar bazalari bunga misol bo‘la oladi.

Hozirgi vaqtda mijozlar bankka bormasdan turib pul o‘tkazish, hisob raqamlarini tekshirish, kommunal to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa xizmatlardan foydalanishlari

mumkin. Banklar esa axborot tizimlari orqali mijozlar hisobini yuritadi, operatsiyalarni nazorat qiladi va moliyaviy xavflarni baholaydi.

Sanoat va ishlab chiqarish sohasida

Ishlab chiqarish korxonalarida axborot tizimlari xomashyo sarfi, tayyor mahsulot hajmi, uskunalar holati va ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilishda muhim o‘rin tutadi. Maxsus boshqaruv dasturlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish mumkin.

Masalan, korxonada xomashyo miqdori belgilangan darajadan kamayganda tizim mas’ul xodimga ogohlantirish yuborishi mumkin. Bu ishlab chiqarish jarayonining to‘xtab qolish xavfini kamaytiradi.

Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida

Savdo korxonalarida axborot tizimlari mahsulotlarni hisobga olish, narxlarni belgilash, buyurtmalarni qabul qilish va mijozlar bilan ishlashda keng qo‘llaniladi. Elektron savdo platformalari orqali xaridorlar mahsulotlarni masofadan turib tanlashi va buyurtma berishi mumkin.

Bundan tashqari, mijozlar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ularning talab va ehtiyojlarini aniqlash, xizmat sifatini yaxshilash hamda savdo hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Ta’lim sohasida

Ta’lim tizimida axborot texnologiyalari elektron ta’lim platformalari, masofaviy o‘qitish tizimlari, elektron kutubxonalar va talabalar ma’lumotlar bazalari ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda.

Ular o‘quv materiallarini elektron shaklda taqdim etish, talabalar bilimini baholash, davomatni nazorat qilish va ta’lim jarayonini boshqarishga yordam beradi.

Natijada o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida axborot almashinuvi osonlashadi.

Transport va logistika sohasida

Transport tizimida axborot tizimlari yuklarni kuzatish, transport vositalarining harakatini rejalashtirish, yo‘nalishlarni tanlash va yetkazib berish muddatlarini nazorat

qilishda qo‘llaniladi.

Logistika korxonalari bunday tizimlar yordamida mahsulotlarning qayerda joylashganini aniqlashi, yetkazib berish jarayonini nazorat qilishi va ortiqcha transport xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

4. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruvda axborot tizimlarining o‘rni

Buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda axborot tizimlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir korxona o‘zining mol-mulki, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlarini muntazam hisobga olib borishi zarur.



Avvallari buxgalteriya operatsiyalarining aksariyati qo‘lda bajarilgan. Hozirgi kunda esa zamonaviy dasturlar yordamida ko‘plab hisob-kitoblarni avtomatlashtirish mumkin.

Buxgalteriya hisobida axborot tizimlaridan quyidagi yo‘nalishlarda foydalaniladi:

– korxonaning daromad va xarajatlarini hisobga olish;

– ish haqi va soliqlarni hisoblash;

– asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni nazorat qilish;

– bank operatsiyalarini hisobga olish;

– moliyaviy hisobotlarni shakllantirish;

– debitorlik va kreditorlik qarzlarini nazorat qilish;

– elektron hujjat aylanishini tashkil etish.

Masalan, 1C: Buxgalteriya kabi maxsus dasturlar korxonalarning hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Microsoft Excel esa moliyaviy ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida qayta ishlash, formulalar yordamida hisoblash va tahliliy hisobotlar tayyorlashda keng qo‘llaniladi.

2-rasm.

Elektron hujjat yaratish



Bunday dasturlar buxgalterning ishini yengillashtiradi, takroriy hisob-kitoblarni kamaytiradi va ma’lumotlarni tartibli saqlashga yordam beradi. Biroq dastur tomonidan shakllantirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish, hisob siyosatiga rioya qilish va yakuniy natijalar uchun mas’uliyatni ta’minlash buxgalterning muhim vazifasi bo‘lib qoladi.

Shuningdek, axborot tizimlari moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini tezlashtirib, korxona rahbariyatiga iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi. Shu jihatdan ular zamonaviy buxgalteriya hisobining ajralmas vositasi hisoblanadi.

5. Axborot tizimlarini joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlari

Axborot tizimlaridan foydalanish ko‘plab qulayliklarni yaratishiga qaramay, ularni joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham uchraydi.

Birinchidan, zamonaviy axborot tizimlarini sotib olish, o‘rnatish va ularga xizmat ko‘rsatish ma’lum miqdorda moliyaviy mablag‘ talab qiladi. Bu, ayniqsa, kichik korxonalar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Ikkinchidan, xodimlarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yetarli bo‘lmasligi tizim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi.

Uchinchidan, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog‘liq xavflar mavjud. Tashkilotlarning moliyaviy va shaxsiy ma’lumotlari ruxsatsiz foydalanish, yo‘qotish yoki

o‘zgartirishdan himoyalangan bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, texnik nosozliklar va internet aloqasidagi uzilishlar ayrim jarayonlarning vaqtincha to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ushbu muammolarni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Korxonaning faoliyatiga mos va iqtisodiy jihatdan samarali axborot tizimini tanlash.

Xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish va muntazam o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Ma’lumotlarni zaxiralash va axborot xavfsizligini ta’minlash.

Dasturiy ta’minotni muntazam yangilab borish.

Tizimning ishlashini doimiy nazorat qilish va texnik xizmat ko‘rsatish.

2-jadval.

Axborot tizimlarining afzalliklari va ulardan foydalanishdagi muammolar

Afzalliklari	Muammolari
Vaqtni tejaydi	Joriy etish harajatlari yuqori bo‘lishi mumkin
Ma’lumotlarni tez qayta ishlaydi	Kiberxavfsizlik xavflari mavjud
Inson xatolarini kamaytiradi	Malakali mutaxassislar talab etiladi
Boshqaruv samaradorligini oshiradi	Texnik nosozliklar yuz berishi mumkin
Hisobotlarni tayyorlashni osonlashtiradi	Ma’lumotlarni himoya qilish zarur

Demak, axborot tizimlarini samarali joriy etish uchun faqat zamonaviy texnologiyalarni xarid qilishning o‘zi yetarli emas. Bunda inson omili, moliyaviy imkoniyatlar, xavfsizlik va boshqaruv jarayonlarini ham hisobga olish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, axborot tizimlari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular ma’lumotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish imkonini

yaratib, korxona hamda tashkilotlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, axborot tizimlaridan bank-moliya, sanoat, savdo, ta’lim, transport, logistika va buxgalteriya hisobi kabi ko‘plab sohalarda foydalanish mumkin. Ularning yordamida vaqt va mablag‘ tejaladi, inson omili bilan bog‘liq ayrim xatolar kamayadi, boshqaruv jarayonlari takomillashadi va iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur axborotlar shakllantiriladi.

Ayniqsa, buxgalteriya hisobida axborot tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, elektron hujjat aylanishini yo‘lga qo‘yish va moliyaviy hisobotlarni tezkor tayyorlash buxgalteriya faoliyatining sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Shu bilan birga, axborot tizimlaridan foydalanishda ma’lumotlar xavfsizligi, xodimlarning bilim darajasi va texnik imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Kelajakda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi iqtisodiy jarayonlarni yanada takomillashtirish uchun yangi sharoitlar yaratadi.

Umuman olganda, axborot tizimlarini iqtisodiyotning barcha sohalariga bosqichma-bosqich joriy etish mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmon. – 2020-yil 5-oktabr. https://lex.uz/docs/-5030957.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmon. – 2022-yil 28-yanvar. https://lex.uz/ru/docs/-5841063.

3. Law A.M. Simulation Modeling and Analysis. – New York: McGraw-Hill, 2015.

4. Banks J., Carson J.S., Nelson B.L., Nicol D.M. Discrete-Event System Simulation. – Pearson, 2010.

5. Zeigler B.P., Muzy A., Kofman E. Theory of Modeling and Simulation: Integrating Discrete Event and Continuous Complex Dynamic Systems. – Academic Press, 2018.

6. Begalov B.A., Abdullayev M.K. Raqamli iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2023. – 352 b.

7. Karimova Sh.Z. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.

8. Muzaffarova D.M. Oliy ta’lim muassasalarini raqamli transformatsiya qilishda Agile Enterprise arxitekturasini ishlab chiqish // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. – № 7.

9. Majidova I.G‘. Raqamli iqtisodiyotning O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesga ta’siri // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – № 8. – B. 838–844.

10. Mirzayev Q., Mirzayeva Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni yo‘lga qo‘yish xususiyatlari // “Muhandislik va Iqtisodiyot” jurnali. – 2024. – T. 2, № 5.

